

FAOLIYATNING MUHIM PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Doniyorova Gulshoda Sobirjon qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Maktabgacha va Boshlang'ich ta'lim fakulteti

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi 25/3-guruh

gdoniyorova4@gmail.com

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li

Olimjonozodqulov30@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17893012>

Annotatsiya: Ushbu maqolada shaxs faoliyatining muhim psixologik mexanizmlaridan biri bo'lgan interyotsizatsiya va eksteriyotsizatsiya jarayonlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berilgan. Interiyotsizatsiya tashqi faoliyatning ichki ruhiy jarayonga aylanishi bo'lsa, eksteriyotsizatsiya esa ichki jarayonning tashqi faoliyat shaklida namoyon bo'lishidir. Mazkur tushunchalar bolaning bilim olish, tafakkur rivojlanishi va shaxs sifatida shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Maqolada L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev hamda J. Piaget kabi olimlarning ilmiy qarashlari keltirilgan. Shuningdek, ta'lim jarayonida interiyotsizatsiya va eksteriyotsizatsiya mexanizmlarining pedagogik ahamiyati yoritilgan. Ushbu maqola boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun nazariy va amaliy jihatdan muhim manba hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Faoliyat, interiyotsizatsiya, eksteriyotsizatsiya, psixologiya, ta'lim jarayoni, Vygotskiy, Leontyev, tafakkur, shaxs rivoji, bilish jarayoni.

Annotation: This article discusses the psychological mechanisms of activity internalization and externalization. Internalization refers to the process through which external actions become internal mental activities, while externalization is the expression of internal processes through external behavior. These mechanisms play an important role in the development of thinking and personality formation in children. The theories of L.S. Vygotsky, A.N. Leontiev, and J. Piaget are analyzed in this study. The article also highlights the pedagogical significance of internalization and externalization in the educational process. This work is valuable for future primary education teachers and psychology students. It contributes to understanding how learning activities shape cognitive development

Keywords: Activity, internalization, externalization, psychology, educational process, Vygotsky, Leontiev, thinking, personality development, cognitive process.

KIRISH:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Ta'lim tarbiya masalasi - bu hayot masalasi". Haqiqatan ham, ta'lim va tarbiya inson shaxsining shakllanishida asosiy omillardan biridir. Inson faoliyati davomida bilimlarni asosan tashqi faoliyat orqali egallaydi, keyinchalik bu bilimlar ichki psixik faoliyatga aylanadi. Shu nuqtai nazardan interiyotsizatsiya va eksteriyotsizatsiya tushunchalari ta'lim psixologiyasining asosiy mexanizmlaridan hisoblanadi. Bu maqolaning maqsadi - ushbu ikki jarayonning mohiyatini ochib berish va ularning ta'lim-tarbiyadagi o'rnini yoritishdir.

Interiyotsizatsiya- bu tashqi faoliyatning ichki psixik jarayonga aylanishidir. Bu tushuncha L.S. Vygotskiy tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Unga ko'ra, har qanday bilim avval tashqi faoliyat shaklida yuzaga keladi, keyinchalik ichki ong jarayoniga aylanadi. Masalan, bola yozishni

o'rganayotganda: avval o'qituvchi ko'rsatmasi asosida harakat qiladi, so'ng mustaqil yozadi, oxirida esa bu skill ichki aqliy jarayonga aylanadi.

Eksteriotsizatsiya - ichki psixologik jarayonlarning tashqi faoliyat shaklida namoyon bo'lishidir. Masalan, o'quvchi masalani ichida fikrlab, so'ng uni doskaga yozib tushuntirib bersa, bu eksteriotsizatsiyadir.

L.S. Vygotskiy: U shaxs rivojini ijtimoiy muhit va muloqot asosida ko'rib chiqadi. Uning fikricha, interiotsizatsiya bolada madaniy tajriba shakllanishining asosidir.

A.N. Leontyev: Faoliyat nazariyasiga ko'ra, inson psixikasi bevosita faoliyat jarayonida shakllanadi. Har qanday faoliyat avval tashqi, keyin ichki ko'rinishga o'tadi. J. Piaget: U kognitiv rivojlanishni bosqichma-bosqich kechuvchi jarayon deb baholaydi. Bola faol harakatlar orqali bilimni egallaydi va bu jarayon ichki strukturalarga aylanadi.

Boshlang'ich sinfda: O'qituvchi ko'rgazmali vositalardan foydalansa - interiotsizatsiya kuchayadi. Og'zaki va yozma ifodalash mashqlari berilsa - eksteriotsizatsiya rivojlanadi. Shu sababli o'qituvchi bolalarda faoliyatni har ikki yo'nalishda rivojlantirishi muhim.

XULOSA:

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, interiotsizatsiya va eksteriotsizatsiya jarayonlari inson psixik rivojining ajralmas qismi hisoblanadi. Ushbu jarayonlar orqali tashqi faoliyat ichki ong faoliyatiga aylanadi va aksincha, ichki fikrlar tashqi xatti-harakat shaklida namoyon bo'ladi. Bu hodisalar ayniqsa ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishi, ularni mustaqil qo'llay olish qobiliyatining shakllanishi aynan shu mexanizmlar asosida yuz beradi. Boshlang'ich ta'lim bosqichida bolalar asosan ko'rgazmali va amaliy faoliyat orqali bilim oladi, keyinchalik bu bilimlar ichki aqliy jarayonga aylantiriladi. Shuningdek, interiotsizatsiya va eksteriotsizatsiyaning to'g'ri tashkil etilishi o'quvchilar tafakkuri, nutqi, mustaqil fikrlashi hamda ijtimoiy faolligini rivojlantiradi. O'qituvchi ushbu jarayonlarni hisobga olgan holda darsni tashkil etsa, ta'lim samaradorligi oshadi va shaxsning mukammal shakllanishi ta'minlanadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogika va psixologiyada bu tushunchalarning o'rnini nihoyatda muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Vygotskiy L.S. – Ta'lim va tafakkur.
2. Leontyev A.N. – Faoliyat. Ong. Shaxs.
3. Piaget J. – Bola psixologiyasi.
4. G'oziev E. – Psixologiya. Toshkent.
5. Mavlonova R., Jo'rayev S. – Pedagogika.
6. Karimova V. – Ta'lim psixologiyasi.
7. Xoliqov S. – Shaxs psixologiyasi.
8. Qayumov A. – Ta'limda innovatsion texnologiyalar.
9. Rahimov B. – O'quv faoliyati psixologiyasi.
10. Yo'ldoshev J. – Pedagogik psixologiya asoslari.